


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

«KELISHILGAN»  
Sport faoliyati va pedagogika fakulteti  
dekani Sh. Inoyatov  
«03» 03 2024 y.

«KELISHILGAN»  
O'quv ishlari bo'yicha: prorektor  
R.G. Jumayev  
«03» 03 2024 y.







61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari Kurash bo'yicha) ta'lim yo'nalishida  
ixtisoslik fanlardan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon  
DASTURI




- 2.01. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani bo'yicha
- 2.12. Sport menejmenti
- 2.08. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi
- 3.01. Kurash nazariyasi va uslubiyoti

Buxoro-2024

## ANNOTATSIYA

2023-2024 o`quv yilida 61010300 – Sport faolyati (faolyat turlari Kurash bo`yicha) ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun namunaviy o`quv rejada ko`rsatilgan umumkasbiy ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiya sinovi uchun tayyorlangan dasturda yakuniy davlat attestatsiya sinovi yozma ishlarini baholash mezonlari, “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to`g`risida NIZOM” va “Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani bo`yicha”, “Sport menejmenti”, “Yengil atletika va uni o`qitish metodikasi”, “Kurash nazariyasi va uslubiyoti” fanlari bo`yicha: fan dasturlari hamda nazorat variantlaridan iborat.

Tuzuvchilar:		
		I.J. Qurbonov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o`qituvchisi
		M.A. Fatullayeva Sport faolyati kafedrası o`qituvchisi
		R.R. Raxmonov Sport faolyati kafedrası dotsenti
		L.A. Azimov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o`qituvchisi dotsenti

Taqrizchilar:		
		A.Sh. Inoyatov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası v.b. professori, p.f.f.d., (PhD)
		A.E. Sattorov Sport faolyati kafedrası dotsenti, p.f.f.d., (PhD)
		G.M. Salimov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası professori, p.f.n.
		Q.P. Arslonov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası professori
		A.T. Toshev Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti

Imtihon dasturi Buxoro davlat universitetining Kengashida ko`rib chiqilgan va tasdiqlangan.

2024 yil 30 03 dagi 8 – sonli bayonnoma

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 16 noyabrda № 1963-3 son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 10 noyabrdagi № 38-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi № 38-2021-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

## Muqaddima

### I. Umumiy qoidalar

### II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

### III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

### IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

### V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalari muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va baholash mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.



### III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestastiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestastiya sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestastiya komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestastiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestastiyasida vasiylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin. Yakuniy davlat attestastiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyastiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestastiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestastiya sinovlarining biri bo'yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestastiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestastiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestastiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestastiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestastiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestastiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida yig'ilish o'tkazadi.

17. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestastiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestastiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestastiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestastiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestastiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestastiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestastiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat



aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestatsiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi taqiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modda.

61010300 – Sport faolyati (faolyat turlari Kurash bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun umukasbiy, ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiya sinovi yozma ishlarini BAHOLASH MEZONILARI

Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga "0" ballidan "25" ballgacha baholandi.	20-25-ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo'lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovellarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo'llay biling kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo'yiladi. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun): 20-25 ball uchun talabani bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim: xulosa va qaror qabul qilish: ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	Umumiy ball - 100 ball
	15-20 ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lishi lozim. Savolni mohiyatini tushungun holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o'zaro taqqoslashga qiynaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo'yiladi. 15-20-ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish.	86-100-ball. A'lo, (86-100 %).
	10-15	Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi	71-85-ball.

	ball	hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlar qisman yozilgan, bu ma'lumotlar asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 15 ball qo'yiladi. 10-15-ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	yaxshi (71-85 %).
	5-10-ball	Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo'lsa, yozma ishga jami 10 ball qo'yiladi.	55-70-ball. Qoniqarli, (55-70 %)
	0-5 ball	Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo'yiladi.	0-54 ball. Qoniqarsi z, (0-54 %)



## 1.12 Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani bo'yicha

### I. Fanning mazmuni

Mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jamiyatimizda yoshlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish - o'ta sharaflil vazifadir.

Mazkur dastur mazmuni jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun intellektual salohiyati yuqori bo'lgan, yuksak bilimli, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashga yo'naltirilgan. "Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" fani talabalarga o'z sohasini yanada chuqurroq o'rganish va kasbiy bilimlarini tushunarli, qiziqarli ravishda taqdim etish, kelajakda jismoniy tarbiya, sport, olimpiya tizimi sohasida mustaqil samarali faoliyat olib borish inkonini beradi.

"Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bakalavriat ta'lim yo'nalishida 1-kursda o'qitiladi. Mazkur fan boshqa umumkasbiy fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qiladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarning jismoniy tarbiya va sportni turli tarixiy davrlarda rivojlanish qonuniyatlari, tizimlari to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarini shakllantirishdir.

**Fanning vazifalari** - talabalarga jismoniy tarbiya va sport tarixini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasida erishilgan yutuqlarni, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixini, jismoniy tarbiya usullari, shakllari, vositalarini rivojlanishi hamda eng ilg'or tajribalarini o'rgatishdan iborat.

"Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **Talaba:**

- nazariy va amaliy mashg'ulotlarda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport harakatini rivojlanish tarixi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi,
- jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixining asosiy davrlarini, rivojlanish qonuniyatlarini, jahon xalqlarining *jismoniy tarbiya va sport tarixini bilishi*,
- fanni o'rganishning tamoyillarini, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini, uning rivojlanish bosqichlari va asosiy xususiyatlarini to'g'ri aniqlash *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;
- ilmiy-nazariy jihatdan olingan bilimlarni tahlil qilish, amaliy mashg'ulotlarda mustaqil fikr yuritish, bilimlarga ijodiy yondoshish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibidagi quyidagi mavzular kiradi:

"Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" faniga kirish.

#### Qadimgi davrda jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining asosiy maqsadi va vazifalari. Fanning mazmuni va asosiy tushunchalari. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining asosiy davrlari. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining o'rganish manbalari. Fanning jismoniy tarbiya va olimpiya sporti sohasidagi o'ri va ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.

Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari. Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya. Qadimgi Gretsiya davlatlarida jismoniy tarbiya. Sparta va Afina tarbiya tizimlari. Qadimgi olimpiya o'yinlari va ularning ahamiyati. Qadimgi Rimda jismoniy tarbiya.

#### O'rta asrlarda jismoniy tarbiya (V - XVII asrlar)

O'rta asrlarda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiyaning rivojlanish xususiyatlari (V-XVII asrlar). Yevropa davlatlarida feodallar, dehqonlar va shaharliklarning jismoniy tarbiyasi. Ritsarlarni tarbiyalash tizimi. Gumanistlarning jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari. Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida o'rta asrlarda jismoniy tarbiya.

#### Yangi davrda jismoniy tarbiya (XVIII - XIX asrlar)

Yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiya nazariy asoslarining taraqqiy etishi. Yevropa mamlakatlarida gimnastika tizimlarining vujudga kelishi. Angliya va AQShda sport va sport o'yinlarining rivojlanishi. Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida jismoniy tarbiya.

Eng yangi davrda jismoniy tarbiya va sport  
(XX asr boshlari - hozirgi davrgacha)

Eng yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining xususiyatlari. Jahon urushlari o'rtasidagi davrda chet el mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport. Jismoniy tarbiyaning harbiylashtirilishi. Sportning professional va zamonaviy yo'nalishlari. Xalqaro sport harakati vujudga kelishining asosiy omillari. Sportning taraqqiy etishi va xalqaro sport tashkilotlarining tuzilishi. Xalqaro sport federatsiyalari. Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlari. Hozirgi davrda sport harakatining rivojlanishi va dolzarb muammolari.

### **Markaziy Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda jismoniy tarbiya**

Qadimgi davrda Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiyaga oid arxeologik topilmalar va yozma manbalar. "Avesto"- qadimgi yozma ma'naviy va ma'rifiy manba sifatida. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ta'lim-tarbiya tizimi va turmush tarzida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.

Qadimgi ajdodlarimiz jismoniy tarbiyasining xususiyatlari. Qadimgi O'zbekiston xalqlarining o'yinlari va jismoniy mashqlarining umumiy tavsifi. Markaziy Osiyoda o'rta asrlar davrida jismoniy tarbiya (IX – XVI asrlar). Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlarining jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari. Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida jismoniy tarbiya to'g'risida. Amir Temurning harbiy-jismoniy ta'limoti. O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo xalqlarining jismoniy mashqlari va milliy o'yinlari.

### **Markaziy Osiyo va O'zbekistonga hozirgi zamon sportining kirib kelishi (XIX asr oxiri – XX asrning boshlari)**

XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda zamonaviy sportning rivojlanishi. Maktab va gimnaziyalarda jismoniy tarbiya. Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarining jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlari. A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida jismoniy tarbiya to'g'risidagi pedagogik qarashlari. Turkistonda ilk sport to'garaklari va sport jamiyatlarining tuzilishi.

### **O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi (1920-1990 yy.)**

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanish xususiyatlari. Sovetlar davrida jismoniy tarbiya va sport tizimi. Jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash. Mehnat va o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya va sport. Sport inshootlarini qurish. Respublika va Butunittifoq spartakiadalari. O'zbekiston sportchilarining sobiq Ittifoq terma jamoasi tarkibida xalqaro sport musobaqalarida ishtiroki va yutuqlari.

### **O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport (1991 – hozirgi davrgacha)**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi va istiqbollari. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni va uning ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari. Ommaviy sport tadbirlari. O'zbekistonda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirishga doir musobaqalar. O'quvchi yoshlarning sport musobaqalari. Bolalar sporti. Ayollar sporti. Nogironlar va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning moslashtiruvchi sportini rivojlantirish yo'llari.

### **O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi**

O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanish davrlari. O'zbekiston sportchilarining sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibida 1952-1992 yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida olimpiya harakatining rivojlanishi. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasining (O'zMOQ) tashkil topishi (1992). O'zMOQ Nizomi Olimpiya xartiyasiga mos ravishda tuzilgan xujjat sifatida. O'zMOQning XOQ tomonidan tan olinishi. O'zMOQning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston MOQning tarkibi va asosiy organlari. O'zMOQ prezidentlari.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi, uning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston sportchilarining Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, Paralimpiya va Paraosiy o'yinlari, Jahon Universiadalari, Jahon Yoshlar o'yinlaridagi ishtiroki va yutuqlari.

### **Qadimgi Olimpiya o'yinlari**

Qadimgi davrda Yunonistonda Nemeya o'yinlari, Istmiya o'yinlari, Pafiya o'yinlari, Panafina, Olimpiya o'yinlari. Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi. Qadimgi olimpiya o'yinlari haqidagi afsonalar. Qadimgi olimpiya o'yinlarining dasturi va ularning xususiyatlari. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahamiyati. Qadimgi yunon olimpiya o'yinlarining ta'qiqlanish sabablari.

### **Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi**

Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyalarining rivojlanishi. Olimpiya shahrida olib borilgan arxeologik qazilmalar va ularning ta'limi. XIX asrning oxirida zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi. Pyer de Kuberten hayoti va faoliyatining ahamiyati. I Xalqaro ta'xis Kongressi (1894) va uning tarixiy ahamiyati.

### **Xalqaro Olimpiya Ko'mitasi va uning faoliyati**



Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi. Xalqaro olimpiya harakati rivojlanish davrlarining umumiy tavsifi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) va uning faoliyati. Olimpiya Xartiyasi – olimpiya harakatining asosiy huquqiy xujjati. XOQning maqsadi va vazifalari. XOQning tarkibi va asosiy organlari. XOQ sessiyalari. XOQ prezidentlari. XOQning shtab-kvartirasi. Olimpiya kongresslari va ularning ahamiyati. Milliy olimpiya qo'mitalari (MOQ) va ularning faoliyati. MOQ Bosh Assambleyasining tashkil topishi, maqsadi va vazifalari. Xalqaro sport federatsiyalari (XSF) va ularning faoliyati. XSF Bosh Assambleyasi, uning maqsadi va vazifalari. Xalqaro olimpiya harakatining dolzarb muammolari.

### **Olimpiya ta'limi tizimi**

Xalqaro Olimpiya akademiyasi va uning faoliyati. Olimpiya muzeylari, ularning maqsadi va vazifalari. Milliy olimpiya akademiyalari va ularning faoliyati. Olimpiya ta'limi va tadqiqotlari bo'yicha xalqaro va milliy markazlar. Olimpizm tushunchalari va ularning mohiyati. Olimpiya madaniyati qadriyatlarini. Olimpiya madaniyatini shakllantirish usullari. Olimpiya bilimlarini targ'ibot qilish shakllari, usullari va vositalari.

### **Olimpiya o'yinlari**

Yozgi Olimpiya o'yinlarining umumiy tavsifi. 1896-1912 yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1920-1948 yillardagi Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. 1952-1988 yillardagi Olimpiadalarning xususiyatlari. 1992 – hozirgi davrgacha o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining xususiyatlari. Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun saharni tanlash tartib-qoidalari. Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining faoliyati.

### **Qishki Olimpiya o'yinlari**

Qishki Olimpiya o'yinlarining umumiy tavsifi. 1924-1936 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1948-1992 yillarda o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. 1994 yildan hozirgi davrgacha o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari. Qishki olimpiya sport turlarining tavsifi va xususiyatlari. Olimpiya sport turlarining Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilish mezonlari.

### **Kontinental va Regional o'yinlar**

Jahonda Osiyo, Amerika, Afrika MOQ assotsiatsiyalari tomonidan o'tkaziladigan kontinental o'yinlar. Olimpizm g'oyalari asosida o'tkaziladigan regional o'yinlar. Yozgi Osiyo o'yinlari (1951-hozirgi davrgacha). Qishki Osiyo o'yinlari (1986-hozirgi davrgacha). Paralimpiya o'yinlari. Paralimpiya o'yinlarining xususiyatlari. Paralimpiya sport turlarining tavsifi. Paraosiy o'yinlari. Jahon talabalari Universiadalarining vujudga kelishi. Yozgi Universiadalar (1959 yildan

hozirgi davrgacha). Qishki Universiadalar (1960 yildan hozirgi davrgacha). Jahon Yoshlar o'yinlari.

### **Olimpiya o'yinlari va ommaviy axborot vositalari**

Olimpiya sporti va ommaviy axborot vositalari. Televizion texnologiyalarning paydo bo'lishi va Olimpiya o'yinlariga kirib kelishining asosiy davrlari. Olimpiya sporti to'g'risidagi hodisa va faktlarni namoyish etishda televideniyaning roli. XOQning television kompaniyalar bilan hamkorlik dasturlari. Reklama va homiylik dasturlari.

### **Olimpiya o'yinlari va siyosat**

Xalqaro olimpiya harakatida Olimpiya o'yinlari va siyosat muammosining vujudga kelishi. Sportda kamsitish, irqchilik va millatchilik muammosi. Sportda aparteidga qarshi kurash. Olimpiya o'yinlaridagi boykotlar va siyosiy namoyishlar. XOQning jahonda olimpiya harakatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyati.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi. Darslik. T.: "Voriz-nashriyoti", 2017.
2. Djalilova L.A. Xalqaro olimpiya tizimi. O'quv-uslubiy tavsiflar. T.: ITA-press, 2015.
3. Djalilova L.A. Olimpiya bilim asoslari. Darslik. T.: ITA-press, 2018.
4. Djalilova L.A. Olimpiya ta'limi asoslari. Darslik. T.: ITA-press, 2018.
5. Djalilova L.A. Olimpiya harakati tarixi. Darslik. T.: ITA-press, 2018.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

6. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi", 2015 yil 5 sentabrdagi soni.
7. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T.: "O'zbekiston", 2019.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 118-son qarori "2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Kontsepsiyasi". 13.02.2019.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmoni. 24.01.2020.
12. Акрамов А.К. Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спорт тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: ЎзДЖТИ нашриёти, 1999.



13. Эрназаров Э. Олимпиада – жаҳон спорти байрами. Илмий-оммабон рисола. Т.: “Шарк” нашриёти, 2008.
14. John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.

#### Internet-saytlari

- 15.– O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
16. www.lex.uz – O‘zRespublikasi Qonun xujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
17. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi madaniy-ma‘rifiy portali.
18. www.natlib.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi.
19. www.olympic.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qomitasi.
- www.paralympic.uz – O‘zbekiston Paralimpiya assotsiatsiyasi.

### 1.25 Kurash nazariyasi va uslubiyoti fani dasturining nazariy qismi.

#### I. O‘quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta‘limdagi o‘rni

Ushbu fan dasturining negizi, uning tarkibiy qismlari, ta‘lim tizimidagi o‘rni kabi masalalar qamrab olgan talabalar uchun “Kurash nazariyasi va uslubiyati” fani mazmun – mohiyati hamda o‘rni, mamlakatni demokra va johon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda Kurash nazariyasi va uslubiyati o‘rni qanchalik muhim ekaligini tushinishda talabalarni ular uchun zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda mazkur dastur – *5610500 Sport faoliyati* (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha talabalar uchun “Kurash nazariyasi va uslubiyati” fanining bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishlarda o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa fanlarning nazariy va amaliy uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida aniq yo‘nalishdagi kurash fanlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

#### I. Fanni o‘qitishdan maqsadi va vazifalari

*Fanni o‘qitishdan maqsad* – talabalarga kurash bo‘yicha bilimlarning nazariy asoslarini, kurashning tarixi, istiqbollari va mutaxassislarni tayyorlash konsepsiyasi, kurash bo‘yicha musobaqa qoidalari va hakamlik qilish asoslari, kurash bo‘yicha texnik usullarning tasniflash, tizimlashtirish va ularning atamallari, jismoniy tayyorgarlik to‘g‘risida tushuncha va uni rivojlantirish, texnik tayyorgarlik to‘g‘risida tushuncha va uni takomillashtirish, tayyorgarlikning ko‘p yillik bosqichlari, mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish turlari, sport maktablarida mashg‘ulotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish uslublari, o‘quv-mashg‘ulot yig‘inini tashkillashtirish va o‘tkazish, saralash uslublari, modellashtirish va natijalarni taxminlash, musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat va tahlil qilish, tiklanish vositalari, mashg‘ulot nagruzkalarining shiddatini aniqlash uslublari, kurashda zamonaviy tadqiqot

uslublari, o‘qituvchi-murabbiyning pedagogik va psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy va amaliy asoslarini o‘zlashtirishdan iborat.

*Fanni vazifasi* talablarini nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kurash bo‘yicha talabalarda kurash tarixi va sport kurashidagi ilmiy ishlar to‘g‘risida tushunchalar bo‘yicha bilimga, musobaqalarda ishtirok etish va uni tashkillashtirishga oid kasbiy – pedagogik malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda shakillantirishga qaratilgan.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- **Talaba** kurash bo‘yicha tarixiy manbalarga suyanish, kurashning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, yaqin va uzoq kelajakdagi istiqbollari, hozirgi paytgacha mutaxassislar qanday tayorlangan va kelajakdagi konsepsiyasi bo‘yicha qanday yol tutish zarurligi, musobaqa qoidalari va hakamlik qilish asoslari, musobaqaning nizomi, talabnoma, torozidan o‘tkazish va qur‘a tashlash bayonnomasi, musobaqani o‘tkazish bayonnomasi, bellashuvni o‘tkazish bayonnomasi hamda ishtirokchilar va jamoalarning egallagan o‘rni aniqlash uslublarini, musobaqaga qatnashish va o‘tkazish xisobotlarini tayyorlash vositasi, uslub va tamoyillarini, texnik usullarning tasniflash, tizimlashtirish va ularning atamallari, ilmiy ishlar to‘g‘risida tushunchalarni *bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;*

- texnik harakatlarini hakam sifatida baholay olish, hakam imo-ishoralarni bajara olish va bellashuvlarni tahlil qilish, pulsometriya va xronometraj uslublarini amalga oshirish *ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak;*

### III. ASOSIY NAZARIY QISM (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

#### 1 – Modul. Kurashning tarixi, istiqbollari va mutaxassislarni tayyorlash konsepsiyasi

##### 1-mavzu: Kurashning tarixi, istiqbollari va mutaxassislarni tayyorlash konsepsiyasi

Kurash to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlarni yig‘ish uslublari. Kurash bo‘yicha zarur tarixiy manbalarni o‘rganib chiqish. Arxiv ma‘lumotlari bilan ishlash. manbalarni tahlil etish, kurash turlari bo‘yicha federatsiyalar ma‘lumotlaridan foydalanish, kutubxonadagi ma‘lumotlardan foydalanish. O‘zbekistonda milliy kurash bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning istiqbollari va konsepsiyasi. Oldingi va hozirgi davrlardagi fikrlar, hamda kelajakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha istiqbollari. Barcha kurash turlari bo‘yicha federatsiya va muzeylardagi ma‘lumotlarni umumlashtirish va mavjud o‘zgarishlarni tizimli ravishda o‘rganib borish.

##### 2-mavzu: Kurash bo‘yicha musobaqa qoidalari va hakamlik qilish asoslari

Kurash bo‘yicha musobaqa qoidalarining oldingi va oxirgi variantlari, hakamlikdagi ovozalari va imo-ishoralari. Musobaqa qoidalari. Texnik usullar va harakatlarni baholash mezonlari, musobaqada foydalaniladigan



bayonnomalarni yurgizish. Kurash bo'yicha guruh o'rtasida xar-xil uslubni foydalangan holda birinchilik o'tkazish. Musobaqa o'tkazish jarayonida kurash bo'yicha bayonnomalarni shakllantirish usullarini o'rganish (Shveysariya, Olimpiya, Yapon tizimi va boshqalar).

### **3-mavzu: Kurash bo'yicha texnik usullarning tasniflash, tizimlashtirish va ularning atamalari**

Kurash bo'yicha texnik usullarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida sinflarga ajratish. Texnik usullarning nomlanishi va ularning ketma-ketlikda bajarilish tartibini shakllantirish yo'llari. Kurash bo'yicha texnik usullarni o'rgatish jarayoni engil kechishi uchun didaktik tamoyillarga mos tizimlashtirish. Usulni bajarishda sportchilarning texnik va jismoniy holatiga qarab yuklamalarni berilishi va atamalarni to'g'ri bilishini shakllashtirish lozim. Texnik usullar, kurashchi holatlari (tik turgan holatlardagi) va harakatlarning atamalarini aniqlashtirish. Kurashda texnik usullarning bajarilishida kurashning tik turgan holatida bajariladigan texnik usullar va ularning nomlanishini ko'rsatib o'tish. Bellashuvni usullar belgilari yordamida yozib borish. Texnik usullarning ximoyalari. Texnik usullarning qarshi usullari. Texnik usullarning kombinatsiyalari.

### **2 – Modul. Jismoniy tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni rivojlantirish, texnik-taktik takomillashtirish hamda psixologik tayyorgarlik**

#### **4-mavzu: Jismoniy tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni rivojlantirish**

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi. Kuch va uni rivojlantirish uslublari. Tezkorlik va uni rivojlantirish uslublari. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi. Chidamlilik va uni rivojlantirish uslublari. Chaqqonlik va uni rivojlantirish uslublari. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi. Egiluvchanlik va uni rivojlantirish uslublari. O'smir yoshdagi kurashchining jismoniy tayyorgarligi.

#### **5-mavzu: Texnik tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni takomillashtirish**

Kurashchilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik. Kurashchining texnik tayyorgarligi, sportchi tomonidan yuqori sport natija-lariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallanganlik darajasi bilan tavsiflanadi. Texnik xarakterlarni amalga oshirishning umumiy asoslari. Xalqaro kurash turlari texnikasi – bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalalanishlar, hamda kombinatsiyalar yig'indisidir. Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo'llari.

#### **6-mavzu: Taktik tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni takomillashtirish**

Taktik tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni takomillashtirish.

Taktik tayyorgarlik tug'risida tushuncha. Taktika – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik maqsadi va vazifalari. Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g'alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko'rsatish maqsadida sport bellashuvini to'g'ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Taktik tayyorgarlikning vazifasi – sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, bellashuv jarayonini to'g'ri olib borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan. Taktik tayyorgarlik turlari va uslublari. Taktik tayyorgarlik turlaridan hujumkor taktika, qarshihujum taktikasi, faol ximoyalalanish taktikasi, texnik harakatni amalga oshirish taktikasi, bellashuvni o'tkazish taktikasi, musobaqada ishtirok etish taktikasi, raqib to'g'risida ma'lumot yig'ish uslubi, chorlash uslubi, siqimga olish uslubi, manyovrlash va boshqalar.

#### **7-mavzu: Psixologik tayyorgarlik to'g'risida tushuncha va uni takomillashtirish**

Umumiy psixologik tayyorgarlik. Umumiy psixologiya turlari. Umumiy psixologik tayyorgarlikni maqsadi va vazifalari. Psixologik tayyorgarlikning uslublari. Kurashda psixologik tayyorgarlik va texnik-taktik maxorat. Muayyan musobaqaga ruxiy tayyorgarlik. Psixologik tayyorgarlikdagi psixologik va pedagogik tadbirlar, sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar. Texnik-tatitik mahoratni takomillashtirish psixologik tayyorgarlik bilan ajralmasligi. Yuklamalardan keying psixologik tiklanish, autogen trenirovka, meditatsiya, o'z-o'ini boshqarish vositalari.

#### **3 – Modul. Mashg'ulot jarayonida o'rgatish uslublari, ilmiy ishlar to'g'risida tushuncha**

##### **8-mavzu: Mashg'ulot jarayonida o'rgatish uslublari.**

Mashg'ulot jarayonida o'rgatishning maqsad va vazifalari. O'rgatish tamoyillari. Texnik harakatlarga o'rgatish uslublari. Texnik harakatlarga o'rgatish bosqichlari.

##### **9-mavzu: Ilmiy ishlar to'g'risida tushuncha.**

Ilmiy risola turlari to'g'risida tushunchalar. Adabiyotlar sharhidan foydalanish uslubi. Kurash bo'yicha ilmiy ishlar to'g'risida berilgan ma'lumotlarni o'rganish, adabiyotlarni to'g'ri tanlab, ularni tahlil qilish foydalanish uslublarini qo'llashni o'rgatish. Pedagogik kuzatuv uslubi. Tadqiqot davomida kurashchilarning har kunlik o'quv-mashg'ulotlarini, yig'inlarini tashkillashtirish va tahlil qilishni o'rganish uslubi. Kurashchilar trenirovkasining dars konspektini tuzish. O'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkillashtirishda oylik va yillik rejadan kelib chiqqan holda dars ishlanmalarini tashkil etish va ular asosida mashg'ulot o'tish rejasi. Trenirovka jarayonida pulsometriya uslubini o'tkazish. Trenirovka jarayonida xronometraj uslubini o'tkazish. Trenirovka jarayonida yuklama birligini aniqlash.



**4- Modul. Jaroxatlanishdan saqlanish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ovqatlanish gigienasi**  
**10-mavzu: Jaroxatlanishdan saqlanish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish**

Kurashdagi asosiy jarohatlarning kelib chiqishi va uning profilaktikasi. Shug'ullanuvchilarni tibbiy nazoratdan o'tkazish. Jarohatlarning turlari, ularning oldini olish chora-tadbirlari. Travma va shikast olgan kurashchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari. Qo'l, oyoq, barmoqlar, bo'yin va qovurg'a sinishlarida yoki chiqish, teri kasalliklarining birinchi alomatlaridagi, charchash ta'sirida vujudga keladigan hastaliklardagi tadbirlar.

**11-mavzu: Ovqatlanish gigienasi**

Kurashchilarda oqsillar, yog'lar, uglevodlar, minerallar, vitaminlarga bo'lgan talabning proporsiyasi. Ovqatlanish ratsionidagi talab va me'yorlar. Ovqatlanish jadvali bo'yicha kun tartibini tuzish. Dietologiya to'g'risida tushuncha. Kurashchilarning vazn xaydash paytidagi ovqatlanish tartibi. Organizm qabul qiladigan va sarf qiladigan energiya nisbatining buzilishi va oqibatlar.

**5 - Modul. Tayyorgarlikning ko'p yillik bosqichlari, mashg'ulot jarayonini rejalashtirish turlari**

**12-mavzu: Tayyorgarlikning ko'p yillik bosqichlari**

Kurashchilarni tayorlash bosqichlari. Bazaviy tayyorgarlik, mutaxassislikga chuqurlashtirish, sportda takomillashtirish va oily sport mahorati bosqichlari to'g'risida tushunchalar. Kurashchilarni tayorlash bosqichlarining maqsad va vazifalari. Bosqichlarni amalga oshirish yo'llari. Kurash turlari bo'yicha seksiyaga kirib kelish davridan boshlab xalqaro toifadagi sport ustasigacha bosib o'tadigan yo'ldagi qiyinchiliklarga bardosh berish.

**13-mavzu: Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish turlari**

Istiqbolli reja. Yosh mezonlari va jismoniy qobiliyatlar. Butun sport biografiyasiga mo'ljallangan va to'rt yillik (olimpiya) reja turlari. Tezkor reja. Makrotsikllar, mezotsikllar va mikrotsikllarni tuzishdagi talablar. Joriy reja. Yillik reja, oylik reja, xafalik reja, kunlik reja va dars konspektini tuzishdagi talablar.

**14-mavzu: Sport maktablarida mashg'ulotlarni tashkillashtirish va o'tkazish uslublari**

Sport maktablarida kurashchilarni tayyorlashning tashkiliy-uslubiy xususiyatlari. Sport maktablari oldida turgan vazifalar. Guruhlarni to'ldirish va trenirovka jarayonini tashkil etish.

**15-mavzu: O'quv-mashg'ulot yig'inini tashkillashtirish va o'tkazish**

O'quv-trenirovka yig'inini o'tkazishning maqsadi, vazifalari, tayyorlash. O'quv-trenirovka yig'inlarini tashkil qilish va o'tkazish. O'quv-trenirovka yig'inlarini rejalashtirish. O'quv-trenirovka yig'inlarini o'tkazish zaruriyati.

O'quv-trenirovka yig'inlar natijalarini rejalashtirish. Yig'inlar natijalarini tahlil qilish.

**6 - Modul. Saralash uslublari, modellashtirish va natijalarni taxminlash**

**16-mavzu: Saralash uslublari**

Kurash turlarida saralash. Saralash ko'p yillik jarayon sifatida. Bolalarni kurash bo'linmasiga saralash uchun testlar. Terma jamoaga saralash. Sport natijasi. Saralashda texnik-taktik mahorat darajasini aniqlash. Saralashning yangi innovatsion uslublari.

**17-mavzu: Modellashtirish va natijalarni taxminlash**

Modellashtirish uslublari. Tayyorgarlik modeli. Mahorat modeli. Bellashuv faoliyatining modeli. Morfofunktsional model. Musobaqa faoliyatidagi modellashtirish va sportchilarning individual xususiyatlariga ko'ra tayyorgarligi. Sport amaliyotida modellashtirish usulini qo'llash kuchli sportchilarning model xarakteristikasi (modelning asosiy tarkibiy qismi).

**18-mavzu: Musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat va tahlil qilish**

